



OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH XIZMATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Ortiqov Yorqin

"Iruskon" mas'uliyati cheklangan jamiyati

ORCID: 0000-0002-0956-1571

yurajonn@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish xizmatlarida innovatsion jarayonlarning mohiyati, o'rni va ahamiyati keng yoritilgan. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda iste'molchilar ehtiyojlarini to'liqroq qondirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada oziq-ovqat sanoati xizmatlari tizimida zamonaviy innovatsion yechimlarning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, raqobatbardoshlikni ta'minlashdagi o'rni, ilmiy-texnik taraqqiyotning ishlab chiqarish xizmatlari rivojiga ta'siri asoslab berilgan. Tadqiqot davomida milliy oziq-ovqat sanoatida innovatsion jarayonlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlanib, ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat mahsulotlari, innovatsiya, sanoat, texnologiya, ishlab chiqarish xizmatlari, innovatsion jarayonlar, texnologiya, raqobatbardoshlik, samaradorlik.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В УСЛУГАХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПИЩЕВЫХ ПРОДУКТОВ

Ортиков Ёркин

Общество с ограниченной ответственностью «Iruskon»

Аннотация. В данной статье всесторонне раскрыта сущность, роль и значение инновационных процессов в услугах по производству пищевых продуктов. Проанализированы возможности повышения эффективности производства, улучшения качества продукции, а также более полного удовлетворения потребностей потребителей в процессе внедрения инновационных технологий. Кроме того, в статье обоснована экономическая и социальная значимость современных инновационных решений в системе услуг пищевой промышленности, их роль в обеспечении конкурентоспособности, а также влияние научно-технического прогресса на развитие производственных услуг. В ходе исследования выявлены приоритетные направления развития инновационных процессов в национальной пищевой промышленности и разработаны рекомендации по их практическому внедрению.

Ключевые слова: пищевые продукты, инновация, промышленность, технология, производственные услуги, инновационные процессы, конкурентоспособность, эффективность.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF INNOVATIVE PROCESSES IN FOOD PRODUCTS MANUFACTURING SERVICES

Ortiqov Yorqin

"Iruskon" Limited Liability Company

Abstract. *This article comprehensively explores the essence, role, and significance of innovative processes in food products manufacturing services. The possibilities of improving production efficiency, enhancing product quality, and better meeting consumer needs through the implementation of innovative technologies are analyzed. Furthermore, the article substantiates the economic and social importance of modern innovative solutions within the food industry service system, their role in ensuring competitiveness, and the impact of scientific and technological progress on the development of production services. During the study, the priority directions for the development of innovative processes in the national food industry were identified, and recommendations for their practical implementation were developed.*

Keywords: *food products, innovation, industry, technology, manufacturing services, innovative processes, competitiveness, efficiency.*

Kirish.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda oziq – ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish xizmatlari ko'rsatishning innovatsion jarayonlarini takomillashtirish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda markaziy o'rinlardan birida turadi. Shu bois, "...ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish va narxlar barqarorligini ta'minlash, oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini yaratish va ichki bozorda intervensiya qilish hajmlari, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini barqarorlashtirish zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish" (Farmon, 2022) vazifasi qo'yilgan. Shu boisdan, O'zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirish asosida bu borada xizmat ko'rsatishning innovatsion jihatlarini va ustuvor yo'nalishlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish zarurati mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi. Tadqiqotda mazkur masalaga alohida e'tibor qaratilganligi va muammoning ijobiy hal etilganligi uning qiymatini belgilab beradi.

Butun dunyoda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli miqdorda ta'minlash va shu asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muammosi har qanday davlatning eng muhim masalasiga aylandi. Tabiiy ofatlar, qurg'oqchilik, urushlar, boshqa sabablar tufayli azaldan aholi o'rtasida ocharchiliklar, qahatchiliklar bo'lib turgan. Shu boisdan, qadimdan turli mamlakatlarda ocharchilik va qahatchilikning oldini olish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish xizmatlarini rivojlantirish, oziq-ovqat zahiralarni tashkil etish chora-tadbirlari ko'rilgan.

Qadimgi Misr, Bobil, Xitoy va boshqa mamlakatlarda qishloq xo'jaligini inqirozga uchramasligini ta'minlash maqsadida serhosil yillarda dehqonlar o'z hosillarining ma'lum qismini majburiy soliq sifatida qishloq oqsoqollariga yoki soliqchilarga topshirishganlar. Yig'ilgan hosilning bir qismi davlat ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lsa, qolgan qismi bir necha yillarga yetadigan miqdorda maxsus urug'lik, g'alla va sholi hamda boshqa ozuqabob ekinlar zahirasiga yo'naltirilgan (Ergashev, 2018).

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, 1996 yilning noyabr oyida Italiyaning Rim shahrida "Butun dunyo oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha Rim deklaratsiyasi" qabul qilingan. Ushbu deklaratsiya har kimning yashash va munosib ovqatlanish huquqiga muvofiq salomatligi uchun xavfsiz va to'laonli oziq-ovqat mahsulotlariga erishish huquqiga ega ekanligi tasdiqlangan (Римская декларация, 1997).

Yangi O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish xizmatlarida innovatsion jarayonlarni takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan to'liq ta'minlash, narxlar barqarorligini saqlash va oziq-ovqat

xavfsizligini mustahkamlash mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidagi eng ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, bu boradagi ilmiy-nazariy tadqiqotlar hamda amaliy yechimlarni ishlab chiqish barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ocharchilikning kelib chiqish sabablari bilan bog'liq masalaga iqtisodiy fanda birinchi bo'lib, ingliz yepiskopi, iqtisodchi olim Maltus (1766-1834 yy.) e'tibor qaratgan. U o'zining nufus nazariyasida aholi geometrik progressiya asosida, oziq-ovqat va noz-ne'matlar esa arifmetik progressiya asosida o'sib boradi, deb xulosa qilgan. Aholi sonining oziq-ovqat va ne'matlarni ishlab chiqarish sur'atlariga nisbatan tezroq va yuqori sur'atlarida o'sishi kambag'allik va qashshoqlikning vujudga kelish sababideb ko'rsatiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda Maltusning aholi sonining o'sishini cheklash mexanizmi to'g'risidagi qarashlari inkor qilinib, keskin tanqid qilingan. Ammo uning oziq-ovqat yetishmasligi xavfining kelib chiqish sabablari to'g'risidagi fikrlariga e'tibor qaratilmoqda (Богомолов и др., 2009).

Kotler (2007), «Iste'mol bozorida alohida shaxs va xo'jaliklar tovar va xizmatlarni shaxsiy iste'mol uchun sotib oladilar». «Iste'mol bozorlari shaxsiy iste'mol uchun tovarlar va xizmatlar sotib oladigan jismoniy shaxslar va uy xo'jaliklaridir».

Napolining (2011) tadqiqotlarida esa oziq-ovqatning inson salomatligiga ta'siri va mamlakatning iqtisodiy va siyosiy barqarorligiga ta'sirini hisobga olsak, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish xizmatlari inson hayotining asosiy jihati hisoblanadi. U to'rtta asosiy ustunni iste'molga layoqatlilik, mavjudlik, foydalanish va barqarorlikni o'z ichiga oladi.

MDH olimlaridan Frolov, Gordeev, Maslennikova (2004) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish xizmatlarini "...mamlakat fuqarolarini hayotiy zarur va foydali ozuqa mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini kerakli hajm va assortimentda o'z manbalari orqali ta'minlashdir" deb ta'riflaydilar.

Bu fikrni davom ettirgan Kudryashova, Presnyakova (2015) singari olimlar "Davlatning oziq-ovqat mustaqilligi aholi iste'molining umumiy hajmida milliy ishlab chiqarishning hissasi 80 foizdan kam bo'lmagan taqdirdagina ta'minlanadi", deb hisoblaydilar.

Fikrimizcha, mamlakatlarning iqtisodiy va demografik salohiyatidan samarali foydalanish zaruriyati bilan bog'liq o'zgarishlar asosida davlat tomonidan oziq-ovqat bozorini tartibga solish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur mavzuni o'rganishda ilmiy bilish, jumladan, iqtisodiyotda bir-biri bilan chambarchas bog'liq va o'zaro aloqada bo'lgan turli bo'g'inlardan iborat yaxlit bir tizim sifatida qarab unda ro'y beradigan jarayonlar doimiy o'zgarishda, oddiydan, murakkablikka, quyidan yuqoriga va rivojlanishda deb belgilangan dialektik usul, ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, pozitiv va normativ usul, induktsiya va deduktsiya usullaridan usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida" gi qonunda iste'mol qiymat oziq-ovqat uchun ishlatiladigan mahsulotlarning sifat jihatdan foydaliligini ifodalaydi. Bu qiymatni biologik resurslar, inson mehnati va zamonaviy texnika va texnologiyalar yaratadi. O'zbekiston Prezidenti tomonidan 2024 yil 16 fevraldagi "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida to'yib ovqatlanmaydigan aholi ulushini kamaytirish bo'yicha aniq strategik maqsad belgilab qo'yilgan. Unga muvofiq, ushbu ko'rsatkichni 2023 yildagi 2,5 foizdan 2030 yilgacha 1,5 foizgacha pasaytirish rejalashtirilgan.

Hozirgi vaqtda tovarlarni sifati va xavfsizligi jahon iqtisodiyotini muammosi bo'lib, u iste'mol qiymatning asosiy komponentlarini tashkil qiladi. Hozirgi davr iste'molchilari

iste'moldagi tovarlarni asosiy iste'mol birliklari bo'lishi bilan birga u inson organizmi uchun xavfsiz, sifatli, tashqi ko'rinishi jozibali hamda foydali bo'lishi zarur. Iste'molchilar iste'mol qilayotgan mahsulotini sifatiga yuqori talab qo'yimoqdalar. Iste'mol qilinadigan mahsulotlarni xavfsizligini boshqarish uchun tovarlarni tayyorlashdan to iste'molchilarga yetkazguncha bo'lgan barcha jarayonlar ilmog'iga yuqori xalqaro normativ-texnik talablar qo'yilmoqda. Tovar ishlab chiqaruvchi ishlab chiqargan tovarini sifati va havfsizligiga to'liq javob berishi lozim. Tovar ishlab chiqaruvchi firmalar bozorda raqobatchilardan orqada qolmaslik uchun tovarlarni sifati va havfsizligi bo'yicha bajariladigan ishlariga zamon talablari asosida yondashmog'i zarur


Mahsulot sifati yuqori iste'mol qiymatga ega bo'lib iste'molchini aniq ehtiyojlarini qanoatlantiruvchi va uni yaroqligiga bog'liq xususiyatlar yig'indisidir. Oziq-ovqat mahsulotlarini sifati va xavfsizligi dunyoda eng katta va dolzarb muommolaridan biri deb qaralmoqda. Chunki insonni hayotiy davri davomida uni tirikligini tashkil etish havo, suv, nur va oziq-ovqat mahsulotlarini sifati, miqdori va xavfsizligi asosiy omillar hisoblanadi va ularsiz hayot bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasini innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitda iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar va tizimli islohotlarni amalga oshirishda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish xizmatlarida innovatsion jarayonlarning mohiyati va ahamiyati ortib bormoqda. Iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni tashkil etishning muhim shakllaridan biri oziq-ovqat bozoriga ilmiy-texnik mahsulotlarni kiritish, axborot-maslahat ta'minoti, loyihalar ekspertizasi, takliflar va buyurtmalar, tajriba ishlab chiqarish bazalarini rivojlantirish, oziq-ovqat korxonalarni shakllantirishni ko'zda tutadigan innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hisoblanadi. Erkin raqobat bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishini asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tushunchaning iqtisodiy-nazariy mohiyatini o'rganish asosida innovatsion rivojlanish strategiyasidan kelib chiqib uning rivojlanishi yo'nalishlarda amalga oshishi lozim:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda innovatsion faoliyatni me'yoriy-huquqiy tartibga solish tizimini shakllantirish;
- respublika va mahalliy darajalarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning innovatsion faoliyatni maqsadli dasturli rivojlantirish;
- davlat-xususiy biznes hamkorligini rivojlantirish.

Mazkur ta'rifni asoslashda Umumjahon oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha Rim deklaratsiyasida qayd etilgan ziq-ovqatga jismoniy (miqdoriy) va iqtisodiy jihatdan erishish, oziq-ovqat mustaqilligi, ishonchlilik va barqarorlik kabilarni asos qilib oldik va unga ijtimoiy jihatni qo'shдик (1-rasm).



1-rasm. Oziq-ovqat xizmatlarining innovatsion elementlari

Manba: muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Bu yerda oziq-ovqatga jismoniy erishish deganda kishilarning xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlariga yetarli miqdorda ta'minlanish imkoniyatiga ega bo'lishi tushiniladi. Bunga erishish maqsadida oziq-ovqat mahsulotlari mamlakat hududida qabul qilingan iste'mol me'yorlariga muvofiq yetarli miqdorda va assortimentda mavjud bo'ladi hamda ularni aholiga yetkazib berish uzluksiz bo'lishi kerak. Bunday imkoniyatni vujudga keltirish uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ichki va tashqi yetkazib berish manbalari hamda ularning zahiralari ustidan davlat nazorati tashkil etiladi.

Iqtisodiyotni innovatsion va investitsion boshqarish sharoitida tadbirkorlik faoliyatiga davlat aralashuvining cheklanganligi hamda ularni rag'batlantirish masalalari O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishida muhim ta'sir etuvchi omillar bo'lib hisoblanadi. Jumladan, har bir biznes yoki tadbirkor davlat ko'magisiz o'z istiqbolini huquqiy manfaatlari orqali himoya qila olmaydi. Jumladan, davlat ko'magi talab etiladi va biznes faoliyati rivojlanadi. Buning uchun har bir iqtisodiy sarmoyalarni rivojlantirish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda raqobat muhitini ta'minlash zarur. Raqobat muhitining shakllanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Raqobatning to'laonli amal qilishi iqtisodiy jarayonlarning erkinligini taqozo etadi cheklanishi esa o'z navbatida raqobatning ham cheklanishi holatlariga olib keladi.

Xulosa va takliflar.

Mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ehtiyoji keskin oshib bormoqda, bu muammo har bir davlat uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsion rivojlanishning iqtisodiy mexanizmlaridan keng foydalanish va ularning amaliyotga keng tatbiq etilishi O'zbekiston Respublikasini globalizatsiya sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, mehnatni moddiy rag'batlantirish tizimini rivojlantirish, aholining turmush sifati va darajasini yaxshilash, iqtisodiyotda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va undagi inqiroziy va inflyatsion jarayonlarni to'xtatish, yakuniy natijada mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga olib keladi.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

Ergashev, X.N. (2018) *O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda sug'urtaning ahamiyati*, Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning oziq-ovqat zahiralari oshirishdagi o'rni va roli: muammo va imkoniyatlar mavzusidagi Oliy ta'lim muassasalariaro ilmiy-amaliy anjumani ilmiy ma'ruzalar to'plami, 19 may, Toshkent, p.257.

Farmon (2022) *"2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"*gi PF-60-sonli Farmon, 28-yanvar. Available at: <www.lex.uz>.

Комлер, Ф. (2007) *Осноы MapKemyHpa*. Москва: Вильямс, p.101.

Napoli, M. (2011) *Oziq-ovqat xavfsizligi multidimensional indeksiga (FIMI) tomon*. Rim: Roma Tre universiteti, Iqtisodiyot fakulteti.

World Bank (n.d.) Available at: <www.worldbank.org>.

Богомолов, В.А. и др. (2009) *Экономическая безопасность: учебное пособие для студентов ВУЗов, обучающихся по специальностям экономики и управления*. Под ред. В.А. Богомолова. 2-е изд., перераб. и доп. Москва: Юнити-ДАНА, p.104.

Кудряшова, А.А. & Преснякова, О.П. (2015) *Продовольственная безопасность и продовольственная независимость: теоретические подходы и практические аспекты*.

Римская декларация по всемирной продовольственной безопасности (1997) АПК: экономика, управление, (2), стр.3–7. ФАО ООН. Available at: <http://www.cawater-info.net/bk/14-4-2.htm>.

Фролов, К.В., Гордеев, А.В. & Масленникова, О.А. (2004) *Продовольственная безопасность: содержание, состояние и основные направления обеспечения*. Москва: Институт экономики, РАН.